



INVESTITSIYA LOYIHALARIDAGI RISKLARNI BOSHQARISH USULLARI

RISK MANAGEMENT METHODS IN INVESTMENT PROJECTS

¹**Boymurodova Lobar
Tursunboy qizi**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti.*
G-mail: boymurodova1707@gmail.com, **ORCID:** 0009-0006-0201-4213

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada mamlakatimizda investitsiyaviy faollik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar va mexanizmlarning bosqichma-bosqich takomillashib borayotgani asoslangan. Xalqaro amaliyotda shakllangan tajribaga tayanilgan holda investitsiya loyihalarida yuzaga keladigan risklarni boshqarishda ularni transfer qilish va transformatsiya qilish usullarining dolzarbligi yoritiladi.

Eng. - This article substantiates the ongoing reforms aimed at promoting investment activity and economic growth in Uzbekistan, as well as the gradual improvement of conditions and mechanisms for attracting investments. Drawing on international experience, the relevance of applying risk transfer and transformation methods in managing risks arising in investment projects is highlighted.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *Iqtisodiyot, investitsiya, investision faollik, investitsiya risklari.*
❖ *economy, investment, investment activity, investment risks.*

Kirish.

Investitsiya loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularga xos bo'lgan risklarning aniqligi, tahlili va samarali boshqarilishiga bog'liq. Raqobatbardosh iqtisodiy muhitda investitsiya faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda moliyaviy, huquqiy, siyosiy va bozor xavflarining mavjudligi loyihaning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, risklarni minimallashtirish, ularni transfer qilish va transformatsiya qilish kabi ilg'or usullarni qo'llash zarurati ortib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati 2025-2026-yillarda oldingi yillarga nisbatan biroz oshib, o'rtacha 2,7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda [10]. Bu o'rinda shuni alohida keltirib o'tish lozimki, zamonaviy dunyoda investitsiyalar ishlab chiqarishni

rag'batlantirish, aholi farovonligi va bandligini oshirish, mahsulot (ish, xizmat) sifatini va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Xususan, 2023-yilda investitsiya mahsulotlari, shu jumladan, obligatsiyalar va fondlar qiymatining barqaror o'sishi 20 foizni tashkil etib, 7 trln. dollardan oshgan bo'lsa-da, keyingi yillarda moliyalashtirish shartlarining qat'iylashuvi xalqaro loyihalarni moliyalashtirish operatsiyalari 26 foizga kamayishiga olib keldi [11]. Xususan, moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan narx o'zgaruvchanligi sharoitida institutsional investorlarning investision qarorlar qabul qilishda noaniqlik va risk omillarini hisobga olish zarurati ortib bormoqda. Bu esa ularning qarorlarida ehtiyotkorlikni oshiradi hamda uzoq muddatli strategik rejalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda investitsiyaviy faollikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, bu jarayonda investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiluvchi tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar hamda institutsional mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...investitsiya manzilli, iqtisodiy samarali bo'lishi...", investitsiyalarni jalb qilishda turli moliyaviy vositalardan foydalanish orqali investitsiya risklarini minimallashtirish va loyihalar rentabelligini oshirish talab etilmoqda. Xususan, 2024-yilda iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 1,3 barobarga oshib, 36 mlrd. dollarga yetdi. Buning natijasida yil boshidan buyon umumiy qiymati 70 trln. so'mni tashkil etgan 560 ta loyiha foydalanishga topshirildi, shuningdek, 2025-yilda eksport hajmini 1 mlrd. dollarga oshirish uchun asos yaratildi [12].

Xalqaro amaliyotda investitsiya risklarini transfer qilish va transformatsiya qilish borasida sezilarli darajada tajriba to'plangan. Biroq, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda global miqyosda yuzaga kelgan keskin iqtisodiy o'zgarishlar mavjud risklardan himoyalaniş mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, har bir risk turining ehtimollik darajasini aniqlash, investitsiya risklarini baholash va ularni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda pandemiyaning iqtisodiyotga ta'siri 2020 -yilda o'sish sur'atining 1,6 foizgacha pasayishida namoyon bo'ldi. Bu o'z navbatida sug'urta bozori hajmining 2,3 trln. so'mdan 2,2 trln. so'mgacha qisqarishiga olib keldi [13, 14]. Qayta sug'urtalash bo'yicha operatsiyalarning ulushi esa 2016-yil ko'rsatkichlariga nisbatan qariyb 2 baravarga kamaygan. Shu bois bugungi kunda O'zbekistonda qayta sug'urtalash

mexanizmlarini takomillashtirish va ulardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda mavjud muammolarni hal etish investitsiya risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qayta sug'urtalash faoliyatining yetarli darajada samarali tashkil etilmagani, xususan, qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tariflarini belgilash, sug'urta zaxiralarini shakllantirish hamda qoplama to'lovlari mexanizmini takomillashtirish zarurati mavjud. Shu bilan birga, sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar o'rtasidagi hamkorlik va integratsiya institutsional jihatdan yanada rivojlantirilishini talab qilmoqda. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy baza yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, bu borada tizimli va kompleks yondashuvni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonunining 3-moddasida "Investitsiya loyihasi- iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui" tarzida talqin etilgan [1].

Akademik S.S. G'ulomov investitsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Investitsiya – bu har bir investor tomonidan o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida muayyan investitsion obyektga yo'naltirish jarayonidir" [2]. M.Q. Pardayev esa investitsiyani quyidagicha izohlaydi: "Investitsiya – bu mulkdorning (investorning) pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlari, texnika va texnologiyasi, mashina va jihozlari, mulkka egalik huquqi hamda intellektual mulk kabi resurslarini ijtimoiy va iqtisodiy foyda olish

maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishidir" [3]. Mazkur ta'riflar mohiyatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida investitsiyaga berilgan huquqiy-tashkiliy tavsiflar bilan uyg'unlikda bo'lib, ularning mazmunan mos kelishini ta'kidlash mumkin.

Tadqiqotchi Л. Басовский ta'rifiga ko'ra, investitsiya faoliyati – bu investitsiya jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning investitsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kompleks harakatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Bu faoliyat o'z ichiga investitsiya resurslarini jalb qilish, ularni maqsadli yo'naltirish, investitsiya obyektlarini tanlash va ular ustidan nazoratni amalga oshirish kabi tizimli elementlarni qamrab oladi [4]. Har qanday investitsiya loyihasi kapital qo'yilmalar muddati va hajmini ko'rsatgan holda loyiha-smeta hujjatlarini tuzish orqali iqtisodiy jihatdan asoslanishi talab etiladi. Bunday zaruratning mohiyati tashkilotning faoliyat sohasi, obyektning o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy tuzilishi, potensial bozorning prognoz hajmi va unga mos talabning mavjudligi, raqobatchilar va kelajakdagi istiqbol bilan belgilanadi.

Е. Досужева va Ю.Кириллов ta'kidlashicha, investitsion loyiha – bu mamlakatda qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ish bajarish jarayonlarini investitsiya resurslari bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy yechim hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish vositasi esa investitsiyalar shaklida sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri kiritishga asoslanadi [5]. Ushbu jarayonda investitsiya loyihasi butun investitsion faoliyatning asosiy va ustuvor kategoriyasi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur kategoriya doirasida strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun zarur bo'lgan taktik vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan operatsiyalar majmuasi tushuniladi. Ushbu ustuvor maqsadlarga erishish investitsiya

loyihalarining samarali amalga oshirilishini talab etadi. Shunga muvofiq, muayyan maqsadlarga xizmat qiluvchi investitsiya loyihalari yig'indisi iqtisodiy kategoriyalar tizimida investitsiya deb ataladi.

В.Канчукоев va М.Хачев fikriga ko'ra, investitsiya loyihalarining institutsional asoslarini mustahkamlash borasidagi ustuvor yondashuvlar, avvalo, maqsadga yo'naltirilgan gipotezalarni shakllantirish va ularni ilmiy verifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda [6]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, investitsiya risklari hanuzgacha mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga sezilarli darajada to'siq bo'lib qolmoqda. Mazkur holatni inobatga olgan holda, investitsiya loyihalarini baholashda daromad miqdorini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, rejalashtirilgan foydaning olinishi yoki olinmasligi ehtimolini ifodalovchi risk darajasi kabi parametrlar ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

В.Балабанов va Е. Дмитриева investitsion loyihalarni ishlab chiqish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra turli darajadagi noaniqlik va risklar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, risklar yuzaga kelgan sharoitda potensial salbiy oqibatlarni minimallashtirishga qaratilgan moslashuvchan va ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish zaruratini oshirishini ta'kidlaydi [7].

О. Jeffrining ta'kidlashicha, iqtisodiy adabiyotlarda risk odatda miqdoriy baholash imkoniyati mavjud bo'lgan noaniqlik sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, iqtisodchilar, xususan, F. Naytning yondashuviga ko'ra, baholash imkoniyati mavjud bo'lmagan holatlar "noaniqlik" tushunchasi doirasida ko'rib chiqiladi [8].

С. Большаков fikricha esa, "investitsiya loyihalari risklari" tushunchasi ostida sarmoyaning (resurslarning) investitsiyaga yo'naltirilgan holatda, uning qaytimliligi to'liq yoki qisman ta'minlanmaslik ehtimoli natijasida yuzaga keladigan zarar (yo'qotish)lar

tushuniladi [9]. Bu yondashuv investitsion risklarning iqtisodiy oqibatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya risklarini iqtisodiyot subyektlarining tashqi va ichki muhit omillaridagi o'zgarishlar ta'sirida rejalashtirilgan

daromadning olinmaslik ehtimoli sifatida izohlash mumkin. Ushbu risklar, odatda, investitsion jarayonlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Risklarning shakllanish sabablari hamda ta'sir doirasiga qarab investitsiya loyihalari risklari turli toifalarga ajratiladi (1-rasm). Jumladan, ijtimoiy risklar bevosita ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ularning shakllanishida inson omili va muayyan mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning xususiyatlari asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Investitsiya loyihalari risklari tasnifi

Siyosiy risklar – mamlakatda iqtisodiy siyosatning strategik yo'nalishida yuz beradigan o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan hamda investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar majmuasidir. Bunday risklar hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, siyosiy barqarorlik darajasining pasayishi yoki investorlar faoliyatini cheklovchi tashabbuslarning kuchayishi kabi omillar bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Huquqiy risklar – siyosiy risklar bilan bevosita aloqador bo'lsa-da, ular normativ-huquqiy tabiatga ega bo'lib, investitsiya faoliyatining yuritilishida huquqiy barqarorlik darajasi bilan belgilanadi. Ular, asosan, asosiy foiz stavkalari o'zgarishi, bojxona to'lovlari miqdorining belgilanishi, litsenziyalash va

ruxsatnoma olish tartibidagi o'zgarishlar kabi omillar bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Moliyaviy risklar – investitsiya loyihalarining moliyaviy asoslarini belgilovchi, resurslar ta'minoti, texnik uskunalar sifati va texnologik infratuzilmaning holati bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladigan noaniqliklar hisoblanadi. Ushbu turdagi risklar, odatda, investitsiya kapitalining yetarli emasligi, kredit resurslarini jalb etish imkoniyatlarining cheklanganligi yoki valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarida risklar ularning miqyosiga ko'ra tizimli va tizimli bo'lmagan turlarga ajratiladi. Tizimli risklar – bu umuman mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muhitga xos bo'lib, mazkur turdagi risklar global moliyaviy, siyosiy yoki iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi va ularni individual

loyihalar doirasida boshqarish nisbatan murakkab hisoblanadi.

Boshqa tomondan, tizimli bo'lmagan risklar bevosita loyiha ishtirokchilarining faoliyati, boshqaruvdagi kamchiliklar yoki noto'g'ri qarorlar bilan bog'liq bo'lib, ular mahalliy va ichki omillar ta'sirida shakllanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tizimli bo'lmagan risklarni aniqlash va ularga nisbatan samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish nisbatan osonroq bo'ladi. Bunga sabab, risklarning kelib chiqish ehtimoli bilan loyiha ishtirokchilarining harakatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi bo'lib, bu aniqlash va baholash bosqichlaridagi murakkablikni sezilarli darajada kamaytiradi.

Mazkur murakkab va ko'p omilli tizimli jarayonlar sharoitida risklarni boshqarish masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Risklarni boshqarish — bu investitsion qarorlar qabul qilishda risk va foyda nisbatini optimal darajada belgilashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatlar majmuidir. Ushbu jarayon o'z ichiga quyidagi asosiy bosqichlarni oladi:

risklarni aniqlash va identifikatsiyalash;

risklarning xususiyatlarini tahlil qilish va baholash;

risklarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish yoki bartaraf etish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish;

risklarni boshqarishning samarali usullarini tanlash va amaliyotga tatbiq etish;

riskli vaziyatlar va ularga daxldor salbiy oqibatlar to'g'risidagi axborotlarni tizimli ravishda yig'ish va tahlil qilish, shuningdek, istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Shu tariqa, risklarni boshqarish tizimi investitsion faoliyatda noaniqlik darajasini pasaytirish, rejalashtirilgan maqsadlarga erishish imkoniyatlarini oshirish hamda investitsiya samaradorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Investitsiya loyihalarida risklarni boshqarishning asosiy maqsadi — mavjud va ehtimoliy xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish hamda ularni imkon qadar minimallashtirishdan iboratdir. Iqtisodiy tizim doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk omillarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va investitsiya loyihasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilish orqali samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bunday yondashuv, qaror qabul qiluvchi subyektning riskli vaziyatlar va ularning salbiy oqibatlarini oldindan bashorat qilish, shuningdek, investitsion jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklarni kamaytirishga qaratilgan harakatlar strategiyasini ishlab chiqishni talab etadi. Shu jihatdan, investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan risklarni oldini olish va ularni samarali boshqarishga yo'naltirilgan tizimli, ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Risklarni boshqarishning asosiy yo'nalishlari investitsiya loyihalarining barqaror va xavfsiz amalga oshirilishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat: risklarni aniqlash va identifikatsiyalash, risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida maqbul tarzda taqsimlash, moddiy ta'minot (ya'ni garov) va moliyaviy ta'minot (kafolat va kafillik) vositalarini joriy etish hamda qarzlarni bo'yicha yo'qotishlarni qoplash fondlarini shakllantirish kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Xususan, risklarni aniqlash va identifikatsiyalash bosqichida moliyalashtirishga jalb qilingan mablag'larning investorlar o'rtasida diversifikatsiya qilinishi muhim omil hisoblanadi. Bu yondashuv yirik loyihalarda keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatida keng tatbiq etilmayotganini qayd etish lozim. Shu

bilan birga, investorlar o'rtasida riskni taqsimlash va nazorat xarajatlarining pasayishi kredit risklarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Sug'urtalash va sertifikatlash mexanizmlarining joriy etilishi ushbu tizimning barcha bosqichlarida – ya'ni loyiha oldi, amalga oshirish va yakuniy fazalarda – qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi:

Qurilish va loyiha xarajatlarini minimallashtirish;

Qurilish bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish (bunda qo'shimcha ma'muriy resurslar talab etilmaydi);

Sug'urtalash va sertifikatlashning faqat lozim bo'lgan turlarini tanlash, bu esa

ishtirokchi kompaniyalar manfaatlarini hisobga olish imkonini yaratadi.

Investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmi doirasida muhim jihatlardan biri – bu loyihaga xos risklarni aniqlash, ularni tasniflash va har bir risk guruhiga nisbatan mos strategiyalarni ishlab chiqishdir. Fikrimizcha, investitsiya risklarining guruhlari va ularning xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinishi lozim (1-jadvalga qarang). Ushbu jadvalda risklar o'zining tabiati, manbai va loyiha jarayonidagi ta'sir darajasiga ko'ra toifalarga ajratilgan bo'lib, boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Investitsiya loyihasidagi asosiy risk guruhlari va ularning tavsifi

Risk guruhlari	Risk tavsifi
<i>Umumtavsifga daxldor risklar</i>	
Iqtisodiy risklar	<i>Iqtisodiy barqarorlik/nobarqarorlik va iqtisodiy rivojlanish omillari bilan belgilanadi</i>
Siyosiy risklar	<i>Davlat siyosati, shuningdek, turli darajadagi hokimiyatlar o'rtasida vakolat va majburiyatlarning muayyan davrdagi taqsimoti oqibatida yuzaga kelgan barqarorlik / nobarqarorlik bilan belgilanadi</i>
Axborot risklari	<i>Aynan talab etilgan ishonchli, to'liq malumotlar bazasi bilan o'z vaqtida ta'minlanishi/ ta'minlanmasligi bilan belgilanadi</i>
Moliyaviy risklar	<i>Moliyaviy tizim barqarorligi / nobarqarorligi hamda investitsiya faoliyati likvidligi/nolikvidligi bilan belgilanadi</i>
Texnologik risklar	<i>Iqtisodiyot subyektning raqobatbardoshligi innovatsion texnologiyalar joriy etilishi va yangi mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarilishi bilan belgilanadi</i>
Tijorat risklari	<i>Tijorat faoliyatida uzilishlar yuzaga kelishi bilan belgilanadi</i>
<i>Yakka tavsifli risklar (investitsiya loyihalari risklari)</i>	
Ichki risklar	<i>Loyiha riski o'zaro bog'liqlikda uning portfeliga nisbatan ko'rib chiqilishi bilan belgilanadi</i>
Bozor risklari	<i>Loyiha riski muayyan firma aksiyadorlari kapitalini fond bozorida diversifikatsiyalash kontekstida ko'rib chiqilishi bilan belgilanadi</i>
Ayrim (alohida) risklar	<i>Muayyan bir loyiha riski iqtisodiyot subyektlari, shu jumladan, davlatning investitsiya portfeli tarkibidagi loyihalardan alohida ko'rib chiqilishi bilan belgilanadi</i>

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, muayyan loyiha mutaxassislari samaradorlikni aniqlash maqsadida risklarni baholashda quyidagi 3 (uch)ta yondashuvni qo'llashadi:

Risklarni baholashda qo'llaniladigan yondashuvlardan biri – intuitiv yondashuv bo'lib, u mavjud ma'lumotlarni tizimli jamlash, tahlil qilish va qayta ishlash asosida amalga

oshiriladi. Mazkur yondashuv doirasida ilgari amalga oshirilgan o'xshash loyihalardan olingan empirik ma'lumotlar bazasi hamda yuqori malakali ekspertlarning tajribasi va baholari asos sifatida foydalaniladi. Intuitiv yondashuv, ayniqsa, statistik asoslar cheklangan hollarda yoki murakkab, noaniq

omillarni tahlil qilish zarur bo'lgan vaziyatlarda samarali qo'llaniladi.

Bundan farqli ravishda, omilli yondashuv ancha tizimli va raqamli uslubga asoslanadi. Ushbu yondashuvda investitsiya loyihasining umumiy (sof) risk darajasini aniqlash maqsadida har bir aniqlangan risk omilining ehtimoliy ta'siri va salmog'i aniqlanadi. Risk omillarining har biri ma'lum darajadagi xavf bilan tavsiflanadi va ularning umumiy ta'sir darajasi quyidagi omillar yig'indisiga asoslangan tarzda hisoblab chiqiladi:

$$R = \sum k_i \cdot R_i(f_n),$$

bu yerda R - loyihaning umumiy riski; k_i - risk ulushi; $R_i(f_n)$ - Investitsiya loyihasi riski, jami omillar f_n , funksiyasining riskka ta'siri.

Statistik yondashuv investitsiya loyihalari risklarini baholashda muhim metodologik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu usul kompaniyaning ilgari amalga oshirilgan moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga oid yakunlangan operatsiyalar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Mazkur yondashuv doirasida xavf-xatarlarni baholash uchun ehtimollik nazariyasi va statistik modellash tirish vositalari qo'llanilib, potentsial zarar (yo'qotish)larning ro'y berish ehtimolini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida loyiha bilan bog'liq risklarni alohida identifikatsiyalash va ularning noaniqlik darajasini hisobga olish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, loyiha muvaffaqiyatining prognozlash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, investitsiya loyihalari risklarini baholashda intuitiv, omilli va statistik yondashuvlarni majmualiy tarzda qo'llash eng maqbul yechim hisoblanadi. Har bir yondashuvning o'ziga xos ustunliklarini uyg'unlashtirish orqali aniqroq va kompleks baholash natijalari olinadi.

Xulosa va takliflar.

Investitsiya loyihalarini boshqarishning zarurligi quyidagilar bilan asoslanadi:

Birinchidan, moliyaviy nobarqarorlik sharoitida muayyan loyiha bo'yicha investitsiyalashning amalga oshirilishi uning samaradorligini pasaytirib yuborish riskini kuchaytiradi. Loyiha samaradorligini baholash qator zamonaviy usullarni qo'llash orqali aniqlanadi. Bu jarayon loyiha boshqaruvining barcha darajalarida muhim o'rin egallaydi va uning natijalariga asoslanib loyiha rahbari, ta'sischi, investor va boshqa daxldor subyektlar loyihaga tegishli o'zgartirishlar kiritish yoki, pirovardida, undan voz kechish yuzasidan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Investitsiya loyihalarini boshqarish davriy vaqt jarayonida amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, davriylikning loyiha natijalariga ta'sirini maqbullashtirishda muhim o'rin egallaydi.

Ikkinchidan, loyihani amalga oshirishning yakuniy natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri inflyatsiya hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, foiz stavkalari va valyuta kurslarining beqaror dinamikasi, talab va taklif nisbatlaridagi o'zgarishlar, shuningdek, iqtisodiy-huquqiy muhitdagi barqarorlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, depozit va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, majburiy zaxira normalari, qayta moliyalashtirish stavkasi, valyuta va bojxona siyosati kabi fiskal va monetar parametrlarning tez-tez o'zgarib turishi investitsiya faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bunday omillarni tahlil qilish va ularning ehtimoliy ta'sirini oldindan baholash investitsiya qarorlarini qabul qilishda zaruriy shart hisoblanadi.

Uchinchidan, turli noaniqliklarning ta'sirini hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini samarali boshqarishning zamonaviy tamoyillari, mexanizmlari va usullaridan optimal foydalanish iqtisodiyot

rivojlanishning yangi sifatiga o'tish imkoniyatini oshiradi.

To'rtinchidan, muayyan investitsiya loyihasining kuchli va zaif jihatlarini har tomonlama baholagan holda, moliyaviy tahlil va diagnostika vositalari yordamida loyiha ijrosi davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk holatlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilish imkoniyati sezilarli darajada ortadi. Bunda, risklarning salbiy oqibatlarini yumshatishda sug'urtalash amaliyoti alohida

ahamiyatga ega bo'lib, u iqtisodiy subyektga xos bo'lgan risklarni mustaqil tarzda boshqarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv doirasida subyekt tomonidan tegishli zaxira fondini shakllantirish orqali ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarni qoplash imkoniyati yaratiladi. Biroq, agar xo'jalik yurituvchi subyektning o'rtacha daromadlilik darajasi sug'urta xarajatlarini qoplashga yetarli bo'lmasa, bu holat kapital qiymatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.
2. Menejment va biznes asoslari (darslik). S.S.G'ulomovning umumiy tahriri ostida.T.: Mehnat.1997. -245 b.
3. Pardayev M.K. Loyiha tahlili. Uslubiy qo'llanma. -SamDU.: 2001. 6 b.
4. Васовский Л. Ye. Прогнозирование и планирование в условиях рынка: Учеб. пособие/ Л.Е. Басовский. - Москва: ИНФРА-М, 2015. - 264 с.
5. Досужева Е.Е., Кириллов Ю.В. Основные принципы реализации инвестиционного проекта. // Интернет-журнал «НаукоедениЕ» Выпуск 1, январь – февраль 2014. // <http://publ.naukovedenie.ru>
6. Канчукоев В.О., Хачев М.М. и др. Анализ институциональных основ инвестиционной политики. <http://cyberleninka.ru/article/n/analiz-institutsionalnyh-osnov-investitsionnoy-politiki>
7. Балабанов, В. С., Дмитриева Е. В.// Оценки рисков инвестиционных проектов промышленных предприятий. / Рецензируемый научный журнал МИР (Модернизация. Инновации. Развитие), Том 4, № 2(14) (2013), С. 26-29.
8. Джеффри Окамото. Неопределенность Найта. // Финансы и развитие, Сентябрь 2020. С.10-11. <http://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/fandd/2020/09/pdf>
9. Болашаков С.О. (2018) Страхование инвестиционных рисков. Международный научно-практический интернет-журнал «ПРО-Экономика» Номер 8, 2018 (август). С.1-6.
10. worldbank.org – Jahon banki (World Bank) tashkilotining rasmiy veb-sayti.
11. unctad.org –BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi tashkilotining rasmiy veb-sayti.
12. president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
13. imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining rasmiy veb-sayti.
14. stat.uz –O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti.